

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.Babadjanov</b>	
O'zbek tilida ish yuritish tizimining shakllanishi va uning mustaqillik davridagi taraqqiyoti .....	637
<b>Э.Х.Мустаева</b>	
Риторическая компетенция как основа формирования профессиональной коммуникации в условиях цифровизации.....	641
<b>З.А.Низомитдинова</b>	
Сравнительная идентификация гендерного дискурса в медиасреде .....	647
<b>Н.М.Каримова</b>	
Эволюция художественного языка В. Распутина и Х. Дустмухаммада: этапы и особенности.....	652
<b>Ш.Н.Саминжонова</b>	
Современные подходы исследования когнитивных единиц языка сети интернет .....	657
<b>М.Э.Турсунова</b>	
Влияние глобализации на язык молодежи на примерах англизмов .....	663
<b>Э.И.Ибрагимова, З.Т.Исаева</b>	
Ключевые направления эволюции русского языкоznания в XXI веке: возникновение научных парадигм .....	666
<b>З.Т.Исаева</b>	
Комплексный анализ парадигматических и синтагматических структур.....	672
<b>Д.О.Турдалиев</b>	
Теория лингвистической относительности и её отражение в повести теда чана «История твоей жизни».....	678
<b>Н.Т.Ходжаева</b>	
Современные методы преподавания русского языка как иностранного: технологии, подходы, практическая значимость .....	681
<b>В.Гимадетдинова</b>	
Анализ лингвокреативных стратегий современного медиатекста .....	684
<b>Э.А.Абдуллаева</b>	
Социокультурный анализ межкультурных коммуникаций .....	688
<b>Б.Х.Абдуллаева</b>	
Трансформация фразеологизмов в русском языке XXI века .....	693
<b>У.М.Юлбарсова</b>	
Лингвокультурные различия в восприятии концепта "Дом" у русских и узбеков .....	697
<b>М.Т.Abdupattoyev</b>	
Poetik sintaksis: ekspressiv va ekstralolingvistik vositalar talqini.....	700
<b>F.H.Islomova</b>	
Matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi metodlar.....	704
<b>A.R.Dadajonov, I.T.Xojaliyev</b>	
Muhokama nutq tipining til tizimida tutgan o'rni .....	707
<b>G.A.Asomiddinova</b>	
Stefan Svegning "Ayol hayotidan yigirma to'rt soat" novellasida inson ruhiy olamining talqini .....	711
<b>Sh.T.Axmadjonova</b>	
Ingliz va o'zbek tillarida badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari .....	714
<b>Sh.G.Akbarova</b>	
Nazar eshonqulning "Tobut" va Alber Kamyuning "Vabo" romanlarining qiyosiy tahili .....	717
<b>Д.С.Усмонова</b>	
Аксиология языка: как ценности формируют фразеологию и культурное сознание .....	722
<b>A.I.Saminov</b>	
Oksymoron komponentlarining mazmuniy munosabati .....	727
<b>M.T.Xalilova</b>	
Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik sathdagi mazmuniy munosabatlarning o'rganilishi xususida .....	732
<b>N.A.Quldashev</b>	
Raqamlı asrda til va identifikatsiya: ijtimoiy media, online muloqot va tildan foydalanish. ....	736
<b>Г.Н.Давлятова, Г.М.Мамаджанова</b>	
Фреймовое представление лингвокультурологических единиц .....	739



UO'K: 81.2.09.3

## POETIK SINTAKSIS: EKSPRESSIV VA EKSTRALINGVISTIK VOSITALAR TALQINI

ПОЭТИЧЕСКИЙ СИНТАКСИС: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭКСПРЕССИВНЫХ И  
ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВPOETIC SYNTAX: INTERPRETATION OF EXPRESSIVE AND EXTRALINGUISTIC  
MEANSAbdupattoyev Muhammadtohir Tojimamatovich 

Farg'onan davlat universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc) professor

## Annotatsiya

*Maqolada lingvopoetikaning asosiy sohalaridan biri hisoblangan poetik sintaksis masalalari, poetik sintaksisning asosiy tadqiqot obyekti hisoblangan poetik nutq tarkibida ishtirok etuvchi ekspressiv va ekstralinguistik vositalarning asosiy belgi-xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, poetik nutqning sintaktik xususiyatlarini o'rganishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir masala ekspressivlik ekanligi, ekspressivlik muammosi tilshunoslikda uzoq yillardan buyon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortib kelishi yoritiladi. Poetik sintaksis doirasida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalardan yana biri poetik nutqning yaratilishiga ta'sir qiluvchi ekstralinguistik omillar masalasidir. Nutqning yaratilish jarayonida, fikr ifoda etish uchun faqat lingvistik omillarga tayanilmaydi. Nutqning qanday shakilanishiga tashqi ta'sir ko'rsatuvchi shunday kategoriyalarni mavjudki, ular tilshunoslikda ekstralinguistik omillar deb yuritiladi. Umuman, poetik nutqning shakilanishida ekspressiv va ekstralinguistik vositalarning ta'siri yuqorida biz to'xtalib o'tgan xususiyatlariga ko'ra ko'zga tashlanadi. Faqat ekstralinguistik vositalarning u yoki bu turi ma'lum bir nutqning yaratilishiga faol ta'sir etsa, boshqa bir nutqda nofaol bo'ladi. Ekspressivlik tilning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblangan ta'sir qilish funksiyasining yuzaga chiqishida muhim rol o'yinaydi. Mazkur kategoriya poetik nutqda tilning xil birliklari va nutqiy vositalari yordamida ifoda etiladi. Ekspressivlikning poetik nutqda samarali qo'llanishi natijasida emotsiyonal ta'siriga ega bo'lgan effekt shakilanishi isbotlab berilgan.*

## Аннотация

В статье раскрываются вопросы поэтического синтаксиса, который считается одним из основных направлений лингвопоэтики, а также основные особенности экспрессивных и экстралингвистических средств, действованных в поэтической речи, которая считается основным объектом исследования поэтического синтаксиса. Также подчеркивается, что экспрессивность является еще одним вопросом, на который следует обратить внимание при изучении синтаксических особенностей поэтической речи, и проблема экспрессивности уже много лет привлекает внимание исследователей-лингвистов. Еще одним вопросом, на который необходимо обратить внимание в рамках поэтического синтаксиса, является вопрос об экстралингвистических факторах, влияющих на создание поэтической речи. В процессе создания речи человек не опирается только на лингвистические факторы для выражения мысли. Существуют также такие категории, оказывающие внешнее влияние на формирование речи, которые в лингвистике называются экстралингвистическими факторами. В целом влияние выразительных и экстралингвистических средств в формировании поэтической речи заметно по тем особенностям, которые мы затронули выше. Только если тот или иной вид экстралингвистических средств активно влияет на создание одной речи, в другой речи он неактивен. Выразительность играет важную роль в проявлении функции воздействия, которая считается одной из самых основных функций языка. Эта категория выражается в поэтической речи с использованием различных языковых единиц и речевых средств. В результате эффективного использования выразительности в поэтической речи доказано формирование эффекта эмоционального воздействия.

## Abstract

*The article reveals issues of poetic syntax, which is considered one of the main areas of linguopoetics, as well as the main features of expressive and extralinguistic means involved in poetic speech, which is considered the main object of study of poetic syntax. It is also emphasized that expressiveness is another issue that should be paid attention to when studying the syntactic features of poetic speech, and the problem of expressiveness has attracted the attention of linguistic researchers for many years. Another issue that needs to be addressed within the framework of poetic syntax is the issue of extralinguistic factors influencing the creation of poetic speech. In the process of creating speech, a person does not rely only on linguistic factors to express thoughts. There are also categories that have an external influence on the formation of speech, which in linguistics are called extralinguistic factors. In general, the influence of expressive and extralinguistic means in the formation of poetic speech is noticeable in the features that we touched upon*

## TILSHUNOSLIK

above. Only if one or another type of extralinguistic means actively influences the creation of one speech, is it inactive in another speech. Expressiveness plays an important role in the manifestation of the influence function, which is considered one of the most basic functions of language. This category is expressed in poetic speech using various linguistic units and speech means. As a result of the effective use of expressiveness in poetic speech, the formation of the effect of emotional impact has been proven.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, poetik sintaksis, ekspressologiya, emotsionallik, ekspressiv nutq, aktual bo'linish, ekstralingvistika, individuallik, sintaktik figura, tasviriylik, ta'siriylik.

**Ключевые слова:** лингвопоэтика, поэтический синтаксис, экспрессология, эмоциональность, экспрессивная речь, актуальное членение, экстраплингвистика, индивидуальность, синтаксическая фигура, изобразительность, аффективность.

**Key words:** linguopoetics, poetic syntax, expressology, emotionality, expressive speech, actual articulation, extralinguistics, individuality, syntactic figure, figurativeness, affectivity.

## KIRISH

Poetik sintaksis doirasida tadqiq etiladigan asosiy muammolardan biri muallif asarlarining sintaktik o'ziga xosligi va unda emotsional-ekspressivlikning ifoda etilishi masalasiidir. Muallifning sintaktik qurilmalarni shakllantirish mahorati uning individual sintaktik uslubiyatini belgilaydi. Sintaktik poetika bevosita muallif ifoda imkoniyatlariiga ta'sir qiladi. Faqat sintaktik tadqiqotlar doirasidagina muallifning ijodiy "tortig'i" tilning sintaktik qurilishiga qanchalik ta'sir ko'rsata organligi, yangi shakldagi sintaktik qurilmalar bera organligi va unda emotsional-ekspressivlikning qanday darajada ifoda etilganligini aniqlash mumkin bo'ladi. G.O. Vinokur ta'biri bilan aytganda, "muallifning til xususiyatlardagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib borish maqsadga muvofiqdir, chunki taniqli ijodkorlarning individual evolyutsiyasidagi o'zgarishlar til evolyutsiyasidagi o'zgarishlar demakdir" [1,321]. Shuning uchun ham muallif tilining individual o'ziga xosligini tahlil qilish lingvopoetik kategoriya sifatida muallif sintaksisining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Poetik sintaksis tahlillari shunisi bilan farqlanadiki, poetik nutqni tashkil etgan sintaktik qurilmalar tarkibidagi so'zlar guruhi (bo'laklar tizimi) faqat ma'nolari va bo'lak sifatidagi belgilariga emas, poetik nutqda bajargan vazifasi, poetik nutq uchun xoslanishiga e'tibor qaratiladi [2,41]. Badiiy nutqning leksik tahlilida markaziy tekshiruv obyekti so'z hisoblansa, poetik nutqning sintaktik tadqiqida jumla, gap va supersintaktik butunliklar [3,31], ularning tarkibiy qismlari tahliliga tortiladi. Leksik tadqiqotlarda so'z qo'llashdagi adabiy meyorlardan chekinish holatlari, so'zlarning o'z yoki ko'chma ma'nolarda ishlatalishi(troplar masalasi) o'rganilar ekan, ularni to'la izohlash uchun kontekst (nutq yoki matn) zarur bo'ladi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Poetik sintaksisda poetik nutq kontekst vazifasini bajaradi. Poetik sintaksisda sintaktik qurilmalarning tipologiyasi, gap tarkibidagi so'zlarning grammatik aloqasi bilan birga, sintaktik qurilmalardagi mazmun o'zgarishlari, muallif tomonidan ularga yuklangan semantik-stilistik vazifalar va qismlarning o'zaro semantik munosabatlariha ham e'tibor qaratiladi. Odatta, sintaktik qurilmalar tarkibida figuralar qo'llanganda, fikr ifodasida semantik-stilistik o'zgarishlar kuzatiladi.

Poetik nutqning sintaktik xususiyatlarini o'rganishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir masala ekspressivlikdir. Ekspressivlik muammosi tilshunoslikda uzoq yillardan buyon tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortib keladi. O'zbek tilshunosligida A.Abdullayev, B.Umurqulovlarning [4,62;81] ishlarida ekspressivlik masalalariga diqqat qaratilgan.

Ekspressivlik, eng avvalo, emotsional tuyg'ularning poetik ifodasida ko'rindi. U fikri tez, ifodali, ta'sirli va tasviriy holatda yetkazadi, Ekspressivlik bo'yicha izlanishlar olib borgan rus tilshunos olimasi YE.I. Koroleva ekspressivlikning aniq ta'rifini beradi: "ekspressivlik inson tuyg'ulari va emotsional holatlarini ifodalovchi til va nutq kategoriysi bo'lib, mazkur kategoriyaning asosiy xususiyati sifatida kommunikatsiya jarayonida adresatga voqelikka munosabat, emotsional baholash, tuyg'ularini ifodalash yo'li bilan ta'sir qilish kabilarni ko'rsatish mumkin" [5,17].

Demak, ekspressivlik tilning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblangan ta'sir qilish funksiyasining yuzaga chiqishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur kategoriya poetik nutqda tilning xil birlklari va nutqiy vositalari yordamida ifoda etiladi. Ekspressivlikning poetik nutqda samarali qo'llanishi natjasida emotsional ta'sirga ega bo'lgan effekt shakllanadi. Shu yo'l bilan asosiy maqsadga erishiladi. YE.I. Korolevaning ta'biri bilan aytganda, "emotsiya shodlik, quvonch bo'lsa,

ularni tashqi tomondan ifodalovchi raqs ekspressivlikdir” [5,21]. Shuning uchun ham ekspressivlikni poetik sintaksisning funksional-semantik aspektida o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Poetik nutq – bu, ekspressiv nutqdir. Shuning uchun ham poetik nutqni o’rganishda uning ekspressiv jihatlariga e’tibor qaratish, ekspressivlikning yuzaga kelishini ta’minlovchi vosita va figuralarni tadqiq etish bunday nutq mohiyatini keng va atroficha o’rganish uchun imkoniyat yaratadi. Ekspressivlik poetik sintaksis doirasida emotsiyallik, obrazlilik tasviriylik, ta’siriylilik kabi tushunchalar bilan kesishadi. Shular bilan birlashadi, uzviy bog’langan bo’ladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu tushunchalar doimo yonma-yon qo’llanadi.

Bugungi kunda ekspressivlikning badiiy nutqdagi o’mi va funksiyasi tadqiqi shu qadar chuqurlashib ketdiki, natijada tilshunoslikda ekspressiv fonetika, ekspressiv leksika, ekspressiv morfologiya, ekspressiv sintaksis tushunchalari paydo bo’ldi. Rus tilshunosi N.P.Romanova o’tgan asrning 80-yillaridayoq shunday yozgan edi: “Tilshunoslikda tilning tasviriy vositalari haqidagi ma’lumotlar shu qadar ko’payib ketdiki, bu holat leksikologiyada yangi yo’nalish shakllanishiga olib keldi. Bu yo’nalishni shartli ravishda ekspressiologiya deb atash mumkin” [6,9].

Ekspressivlikning yuzaga kelishida emotsiyallik muhim ahamiyatga ega. Faqat shuni ta’kidlash lozimki, ekspressivlik emotsiyallikka nisbatan keng tushuncha bo’lib, u nafaqat emotsiyallikni, balki erkin intellektual funksiyani ham yuzaga chiqaradi. Ekspressivlikka berilgan turli ta’riflardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, ekspressivlik uslubiy neytral vositadan farqli tarzda o’zining ifodaliligi, emotsiyallikni subyektiv baholash yo’li bilan ta’sir etishi, vogelikka yoki adresatga bo’lgan munosabatini emotsiyallik ifodalashi bilan xarakterlanadi. Uning ifoda vositalari sifatida badiiy tasvir vositalari, troplar va poetik nutqning shakllanish jarayonida qo’llanuvchi turli sintaktik-stilistik figuralarni ko’rsatish mumkin.

Poetik sintaksis doirasida e’tibor qaratilishi lozim bo’lgan masalalardan yana biri poetik nutqning yaratilishiga ta’sir qiluvchi ekstraliningvistik omillar masalasi. Nutqning yaratilish jarayonida, fikr ifoda etish uchun faqat lingvistik omillarga tayanilmaydi. Nutqning qanday shakllanishiga tashqi ta’sir ko’rsatuvchi shunday kategoriyalar ham mavjudki, ular tilshunoslikda ekstraliningvistik omillar deb yuritiladi [7,356].

Poetik nutqning shakllanish jarayonida unga tashqi (lingvistik xarakterga ega bo’lmagan) ekstraliningvistik omillarga tilshunoslari tomonidan:

- a) muallif shaxsi va uning dunyoqarashi; b) poetik nutqning milliy xususiyatlari;
- c) kommuniksiya predmeti haqidagi mavjud bilim (ma’lumotlar);
- d) davrning ijtimoiy holati;

e) nutq mavzusi, nutqiy vaziyat va h.k.z [8,177] kabi xususiyatlari ta’kidlab o’tiladi. Shundan kelib chiqib, ekstraliningvistik omillarning asosiy belgi-xususiyatlari sifatida quyidagi masalalarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

a) muallif shaxsi va uning dunyoqarashi. Nutqning yaratilishida muallif shaxsining “kim” ekanligi, uning qanday muhitda ulg’ayGANI, ma’lumoti, xarakteri, dunyoqarashi, bilimlari majmuasi kabilalar muhim hisoblanadi, bu poetik nutqqa ham tegishlidir, chunki poetik nutqning shakllanishida muallifning “men”i to’la aks etadi. Bu omillar nutq mazmuniga ham ta’sir etadi, ifodada ham ko’zga tashlanadi. Muallif har qanday vogelikni o’z pozitsiyasi nuqtai nazaridan kelib chiqib tasvirlaydi yoki bayon qiladi. Agar ma’lum bir ijodkor misolida uning poetik asarlari shu nuqtai nazaridan tahlil etilsa, bu omil yaqqol ko’zga tashlanadi;

b) poetik nutqning milliy xususiyatlari. Har qanday poetik nutqda milliy xarakter namoyon bo’ladi. Millatning umumiy belgi-xususiyatlari, an’analari, madaniyati, urf-odatlari kabilalar, hatto, poetik nutq shu mavzuda bo’lmasa ham, sezilib turadi. Chunki nutq muallifi ham ma’lum bir millat farzandi, ikkinchidan, nutqning tinglovchisi, adresati shu millat vakillari bo’lgani uchun ham, muallif ongida shu xalq siyoshi gavdalanim turadi. Milliylik xususiyati gap qurilishi – she’riy satrlarning shakllanishiga ham ta’sir qiladi. Masalan, o’zbek va xitoy she’riyatidagi sintaktik qurilmalar ham keskin farqlanadi. Shuningdek, “Yapon milliy she’r shakli bo’lgan xaykular boshqa millat she’rlaridan sintaktik qurilishi jihatidan ham, semantikasi jihatidan ham keskin farq qiladi” [9].

c) kommuniksiya predmeti haqidagi mavjud bilim (ma’lumotlar). Nutq predmeti fikrning nima yoki kim haqida ketayotganligi, nima haqida ma’lumot berilayotganligidir. Nutq muallifi shu predmet haqidagi o’zida mavjud ma’lumotlardan ortig’ini bayon qila olmaydi. Muallif imkoniyati bu borada

## TILSHUNOSLIK

chegaralangan bo'ladi. Muallif hatto romantik fantaziyaga berilganda ham (bu poetik nutqning bir belgisi), qo'shimcha informatsiya yetkazolmaydi;

d) davrning ijtimoiy holati. Poetik nutqning yaratilishida davr ruhi, ijtimoiy-siyosiy voqelik o'z aksini topadi. Bu ekstralengvistik omil poetik nutq muallifining nimani, qanday, yoritish haqida bosh qotirishiga sabab bo'ladi, chunki muallif hamma'lum bir davr, ma'lum bir jamiyatning farzandi. Turli davrlarda yaratilgan poetik asarlarni tahlil qilar ekanmiz, davr, zamon, vaqt, siyosat kabi kategoriyalar nafaqat poetik asarlar mavzusi, g'oyasi yoki tasvir xarakteriga, balki leksikasi, sintaktik qurilmalarning tuzilishi, she'riy shakllarga ham ta'sir qilganining guvohi bo'lamiz. Masalan, G.G'ulom bilan Iqbol Mirzo yoki Faxriyor she'rлarini taqqoslaydigan bo'lsak, mavzu yoki g'oyadan tashqari, sintaktik qurilmalarda, she'riy shakllarda ham katta farq borligini kuzatish mumkin;

e) nutq mavzusi, nutqiy vaziyat va h.k.z. Juda ko'p hollarda aynan nutqiy vaziyat poetik nutqning yaratilishiga turtki beradi. Ayniqsa, poetik nutq muallifi yolg'iz ijod qilayotgan vaqtida ham o'z ongida nutqiy vaziyat yaratadi va bu vaziyat asarga ko'chadi. Shu vaziyatda nimalarni aytish muhimligini inobatga olgan holda, muallif fikrlarini saralaydi. Vaziyatdan kelib chiqib, mavzuni belgilaydi, ifoda vositalarini tanlaydi. Shu tarzda yana bir ekstralengvistik omil poetik nutq yaratilishiga ta'sir qiladi.

## XULOSA

Umuman, poetik nutqning shakllanishida

ekspressiv va ekstralengvistik vositalarning ta'siri yuqorida biz to'xtalib o'tgan xususiyatlariga ko'ra ko'zga tashlanadi. Faqat ekstralengistik vositalarning u yoki bu turi ma'lum bir nutqning yaratilishiga faol ta'sir etsa, boshqa bir nutqda nofaol bo'ladi. Ekspressivlik tilning eng asosiy vazifalaridan biri hisoblangan ta'sir qilish funksiyasining yuzaga chiqishida muhim rol o'ynaydi. Mazkur kategoriya poetik nutqda tilning xilma xil birliklari va nutqiy vositalari yordamida ifoda etiladi. Ekspressivlikning poetik nutqda samarali qo'llanishi natijasida emotsiyonal ta'sirga ega bo'lgan effekt shakllanadi. Poetik nutqni tahlil qilishda mana shu jihatlarga ham e'tibor qaratish lingvopoetika va uning alohida sohasi hisoblangan poetik sintaksis uchun ham ahamiyatlidir. Lingvopoetikani tilshunoslikning alohida sohasi sifatida baholab, uning maqomini belgilash, o'rganish obyektlari va muammolarini aniqlashtirishda yuqoridagi kabi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – Москва: Высшая школа, 1991. – С.447.
2. Патроева В.Н. Типы и функции осложняющих конструкций в языке русской поэзии XVIII-XIX вв. Автореф... дисс...док...фил...наук. СП., – С 53.
3. Abdupattoev M.T. Sintactic composition of poetic speech // Central Asian Journal of Literature, Philosophy, & Culture (CAJLPC) ISSN: 2660-6828 Table of Content - Volume 3 | No 4 (Apr 2022). Page: 30-35.
4. Абдуллаев А. Экспрессивлик ifodalashnинг синтактик усули. Тошкент. "Фан" 1987, - Б 86., Умуркулов. Поэтик нутқ лексикаси. Тошкент "Фан". 1981, - Б. 110
5. Королева Е.И. Экспрессивные грамматические средства языка в аспекте функционально-семантического поля(наматериалесовременной британской баллеристики). Автореф... дисс...канд...фил наук. Екатеринбург. 2016, - С 32.
6. Романова Н.П. О метаязыке раздела лексикологии, изучающего экспрессивную лексику // Экспрессивность на разных уровнях языка : межвуз. Сб. науч. трудов. Новосибирск, 1984. С 6-19.
7. ЖербилоТ.В. Словарь лингвистических терминов. Изд. 5-ое.дополн. Назрань: «Пилигрим», 2010, - С 486 .
8. Abdupattoev M.T. Unusual Connections As Forming literary texts. The American journal of social science and edication innovations/ 2021. Volime – 03, Issue – 02-28. Page: 177-182. DOI: <https://doi.org/10.37547/tajse>.
9. Ричард Медхарст. Японская поэзия хайку: искусство краткости.<https://www.nippon.com>. (мурожаат куни: 21.04.2021)